Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения
бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ***
**к договору (контракту) от 20.06.2022 г. № 20**

**между "VERSAL GROUP" МЧЖ и Ширин шахар халк ХТБ на общую сумму 78000000,00**

Глава 075

Казначейский лицевой счёт 401722860244107092100075003

(в сумах)

| Наименование месяцев 2022 г. | Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации) | | | Всего |
|---|---|---|---|---|
| | 4233900 | | | |
| Январь | | | | |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | 78 000 000,00 | | | 78 000 000,00 |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | | | | |
| **Всего за год** | **78 000 000,00** | | | **78 000 000,00** |

Всего 78000000,00 сум Семьдесят восемь миллионов сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 23400000,00 сум или 30,00%*** от общей суммы договора
подлежат предоплате в _________ мес. 20__ г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _______% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика _______ (подпись) Жуманазаров Жамолиддин Мамарасул ўғли Ф.И.О.

М.П.

Главный бухгалтер заказчика _______ (подпись) Сарибоев И.Х. Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения _______ (подпись)

«___» _______________ 20___г.

Получил работник заказчика _______ (подпись)

«___» _______________ 20___г.

{year} й. «{day}» {month}    {number}-сон    ________________ш.

{year}2022 y. « {day}» {month}    {number}-20son    SHirin sh.

# PUDRAT SHARTNOMASI: №20

**2022 yil «20 » iyun**

Keyingi o'rinlarda *"Buyurtmachi"* deb yuritiladigan SHirin shaxar XTB nomidan *Nizom* asosida ish yurutuvchi *JJjumanazarov* bir tomondan *va* keyingi o'rinda *"Bajaruvchi"* deb yuritiladigan nomidan *Nizom* asosida ish ko'ruvchi *MCHJ VERSAL GROP* ikkinchi tomondan *D.Eshonqulov*

## I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:
**Qurilish ob'ekti** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Bajaruvchiga berilgan ob'ekt.

## II. SHARTNOMANING MAVZUSI.

2. Bajaruvchi mazkur shartnoma shartlariga asosan loyixada ko'zda tutilgan ob'ekt ***Sirdaryo viloyati SHirin shaxar Mirzo Ulug'bek maxallasi xududida joylashgan 3-umum talim maktabining piyodalar yo'laklarini tamirlash*** ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Bajaruvchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Bajaruvchi tanlov (tender) savdosi natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarini o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda KKSsiz 78000000 ***(Yetmish sakkiz million*** **)** so'mni tashkil etadi.

## IV. BAJARUVCHINING MAJBURIYATLARI.

4. Mazkur shartnoma bo'yicha Bajaruvchi mazkur shartnomaning II bo'limda nazarda tutilgan ishlarini bajarish uchun:
Barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga **1-** ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va mudatlarda o'zining kuchlari (bosh bajaruvchi tashkilotining ish xajmi 50 foizdan kam bo'lmasligi kerak) yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
Qurilish jarayonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tqazilgan daraxtlarni va er uchaskasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;
Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
5. Bajaruvchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarining o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

## V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

6. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:
Ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura - qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayt etilgan Bajaruvchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Bajaruvchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
Bajaruvchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun davomida Bajaruvchiga ishlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;
Mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini oladi;

## VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

7. Bajaruvchi birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.
8. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran **30 kun**ni tashkil etadi

## VII. TO'LOVLAR VA XISOB-KITOBLAR.

9. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi, bu ***23400000 (Yigirma uch million to`rt yuz mig)*** so`mni tashkil etadi.
10. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni mutanosib ravishda ushlab qolinishi xisobga olgan xolda, bajarilgan ishlar qiymatining 70 foiz buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan xisob-fakturaga asosan xisobot oyidan keyingi oyida amalga oshiriladi.
12. Bajaruvchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Bajaruvchining zimmasida bo'ladi.
13. Buyurtamchi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun **mobaynida** bajarmagan taqdirda, Bajaruvchi bu xaqda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan xolda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish xuquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun xaq to'lashdan ozod qilinmaydi.

## VIII. ISHLARNI BAJARISH.

14. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini-texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazorati amalga oshiradi, shuningdek Bajaruvchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarning shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.
15. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish xuquqiga egadir.
16. Bajaruvchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Bajaruvchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.
17. Agar Buyurtmachi Bajaruvchi va (yoki)uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Bajaruvchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarning ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Bajaruvchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Bajaruvchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

## IX . ISHLARNI QO'RIQLASH .

18. Bajaruvchi ishlar boshlanishidan ta'mirlash tugallanguncha va ta'mirlash tugallangan ob`ekt buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar ob`ektni zarur darajada qo'riqlanishi ta'minlaydi.

19. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob`ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi .

## X . ENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI.

20. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etadilar.
Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

21. Agar engib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Bajaruvchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservapsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muxokama qiladilar.

22. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

## XI . KAPITAL TA'MIRLASHNISHI TUGALLANGAN OB'EKTNI QABUL QILIB OLISHI.

23. Ta'mirlash-tiklash tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibda muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin amalga oshiriladi.
24. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Bajaruvchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida qabul qilib olinadi.
25. Bajaruvchi ta'mirlash tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan **5** kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Bajaruvchiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro xujjatlarini beradi. Bajaruvchi Buyurtmachiga ushbu xujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlash kerak.
26. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

## XII. KAFOLATLAR

27. Bajaruvchi:
Barcha ishlar to'liq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;
xar oyda bajarilgan ishlar xajmini tasdiqlovchi (oylik xisobat) xisob-fakturani xisobot davrining 28 sanasiga topshirishni;
uzi tomonidan kapital ta'mirlash uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilagan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlariga muvofiqligini;
ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;
ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi,
28. Ob'ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tuganlangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolangan kundan boshlab kamida 6 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomining kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.
29. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u xolda kafolat muddat nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Bajaruvchi tomonidan o'z hisobidan bartaraf etiladi.
Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Bajaruvchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.
Agar Bajaruvchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasi Bajaruvchidan ushlab qolish xuquqiga ega.
30 Buyurtmachi Bajaruvchi tomomnidan sifatli va belgilangan muddatlarda bajarilgan ishlar xajmini investordan mablag' ajratilgandan so'ng 3 kun ichida to'lab berishni kafolatlaydi.

## XIII. SHARTNOMA BEKOR QILISH

31. Buyurtmachi:
shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlash boshlanishi Burtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Bajaruvchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Bajaruvchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, Bajaruvchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda:
Bajaruvchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan daraja buzilganda;
qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.
32. Bajaruvchi:
ishlarning bajarilishi Bajaruvchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;
Qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab xuquqiga ega.
33. SHartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Bajaruvchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Bajaruvchiga to'laydi.

34. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.
35. SHartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.
36. SHartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasino.

## XIV. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIK.

37. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon;

ikkinchi tomonga etkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

38. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Bajaruvchiga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining **0,4** foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining **50** foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnomaga shartlari buzilishi tufayli etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

39. SHartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar xajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Bajaruvchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning **0,4** foizi miqdorida jarima to'laydi.

40. Bajaruvchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining **0,4** foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining **50** foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o'tkazilib yuborilgan xar bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining **0,4** foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining **50** foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Bajaruvchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli etkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

41. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish xujjatariga muvofiq bo'lmasa, u xolda Buyurtmachi "Davrarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun xaq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Bajaruvchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining **0,4** foizi miqdorida jarima undirish xuquqiga ega.

42. SHartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

43. Muddat o'tkazib yuborganligi yoki majburiyatlarnining boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## XV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

44. SHartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek etkazilgan zararni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar xal etolmasa ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Sirdaryo viloyati iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

## XVI ALOXIDA SHARTLAR

### Shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha majburiyatlari

45.Shartnoma bo`yicha o`z majburyatinig bajarishda tomonlar korupsyaga qarshi kurashish bo`yicha qoidalarga shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya yetilishini taminlaydi ,yani tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirikidagi davlat xodimiga pora berishda vostachilik qilish,moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim.Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo`yicha chora tadbirlar qabul qilinishi takidlaydi.

46. Yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi.Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatda oydinlik kiritish maqsadida, yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojatni olgan tomon 10(o`n) ish kuni mobaynida tishuntirish berishi o`ki o`z fikrini bildirishi mumkin.

47. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to`xtatib turish huquqiga ega.

48. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli boʻlgan tomonlar oʻrtasidagi barcha oldingi yozma va ogʻzaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning oʻzaro kelishuvlari oʻz kuchini yoʻqotadi.

49. Mazkur shartnomaga barcha oʻzgartirish va qoʻshimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan boʻlsa, xaqiqiy xisoblanadi.

50. Buyurtmachi bilan Bajaruvchi oʻrtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo boʻlishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qoʻshimchalar yoki oʻzgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

51. Agar Bajaruvchi shartnoma boʻyicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida oʻziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Bajaruvchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq toʻlashni kechiktirishga xaqlidir.

52. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari normalari qoʻllaniladi.

53. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega boʻlgan 2 nusxada tuzilib Gʻaznachilik boʻlinmasidan roʻyxatdan oʻtgandan soʻng kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga kadar amal qiladi.

## XVII. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLLARI.

***BUYURTMACHI:***

**SHirin SH XTB**

**Manzil X.Dustligi kuchasi**
**Tel: 677-64-59-78**
**x/r 40172286024410709210007500З**
**INN 201169313**
**OKONX 97600**
**SHirin shaxar Gʻaznachilik bulinmasi**
**23402000300100001010**
**INN 201122919**

**J.Jumanazarov**

***BAJARUVCHI:***

***MCHJ VERSAL GROP***

**Manzil: SHirin shaxar**
**Tel : 906803907**
**R/s: 20208000001040817001**
**ATB Agrobank**
**MFO 00383 INN -306050812**
**OKONX**

**D.Eshonqulov**

SHirin shaxar XTB ga qarashli Sirdaryo viloyati SHirin shaxar

Mirzo Ulug`bek maxallasi xududida joylashgan 3-umum ta`lim maktabining

Piyodalar yo`laklarini ta`mirlash ishlari bo'yicha

2022 yil 20-iyundan tuzilgan 20-sonli shartnomaga ilova

Sirdaryo viloyati SHirin shaxar

Mirzo Ulug`bek maxallasi xududida joylashgan 3-umum ta`lim maktabining

Piyodalar yo`laklarini ta`mirlash ishlari bo'yicha

**Bajarish jadvali**

| Ish turi va nomi | Soni | 2022 yil jami | 2022 yil uchun bajarish grafigi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Iyun | |
| Sirdaryo viloyati SHirin shaxar Mirzo Ulug`bek maxallasi xududida joylashgan 3-umum ta`lim maktabining Piyodalar yo`laklarini ta`mirlash | 1 | 78000000 | 78000000 | |
| | 1 | 78000000 | 78000000 | |

Buyurtmachi

SHirin shaxar XTB mudiri

J.Jumanazarov

Pudratchi

"OOO VERSAL GROUP" MCHJ raxbari

D.Eshonqulov

SHirin shaxar XTB ga qarashli Sirdaryo viloyati SHirin shaxar

Mirzo Ulug`bek maxallasi xududida joylashgan 3-umum ta`lim maktabining

Piyodalar yo`laklarini ta`mirlash ishlari bo'yicha

2022 yil 20-iyundan tuzilgan 20-sonli shartnomaga ilova

**Molyalashtirish jadvali**

Sirdaryo viloyati SHirin shaxar

Mirzo Ulug`bek maxallasi xududida joylashgan 3-umum ta`lim maktabining

Piyodalar yo`laklarini ta`mirlash ishlari bo'yicha

Pudratchi tashkilot "OOO VERSAL GROUP" MCHJ raxbari

Tamirlash muddati 15 kun

| Molyalashtirish shartlari | Jami | 2022 yil | |
|---|---|---|---|
| | | Iyun | |
| Avans 30% | 23400000 | 23400000 | |
| Joriy Molyalashtirish | 54600000 | 54600000 | |
| Jami | 78000000 | 78000000 | |

Buyurtmachi

SHirin shaxar XTB mudiri

____________ J.Jumanazarov

Pudratchi

"OOO VERSAL GROUP" MCHJ raxbari

____________ D.Eshonqulov

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 101848 на приобретение Сирдарё вилояти Ширин шахар Мирзо -Улугбек махалласи худудида жойлашган 3-умумтаьлим мактабининг пиёдалар йулакларини таьмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 15.06.2022

Время рассмотрения 15.06.2022 10:10

Конкурсная комиссия Ширин шахар Халк таълими булими (Аппарат), (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | JUMANAZAROV JAMOLIDDIN MAMARASUL O'G'LI | Мудур | Ширин шахар ХТБ |
| **Член комиссии** | XALIMOV XUSNIDDIN FAXRIDDINOVICH | Бош мутахасис | Ширин шахар ХТБ |
| **Секретарь комиссии** | BEGMATOVA GULNORA MURODJON QIZI | Таьминотчи | Ширин шахар ХТБ |
| **Член комиссии** | UMEDOVA FAROG'AT KOMIL QIZI | Давлат харидлари ва шартномалар бўйича мутахасис | Ширин шахар ХТБ |
| **Член комиссии** | SARIBAYEV IKRAMJAN XAKIMOVICH | Бош хисобчи | Ширин шахар ХТБ |
| **Член комиссии** | XOLBAYEV ANVAR ARTIKBAYEVICH | Хизмат бошлиғи-бош мухандиси | Ширин шахар ХТБ |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 15.06.2022 года № лота 101848.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

| | |
|---|---|
| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по текущему ремонту и благоустройству территории** |
| Подробное описание | Сирдарё вилояти Ширин шахар Мирзо-Улуғбек МФЙ худудида жойлашган 3-умум таьлим мактабининг пиёдалар йўлакларини таъмирлаш |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 78 089 840.00 |
| Стартовая сумма | 78 089 840.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Qurilish maydonini o'rganganligi to'g'risida ma'lumot

Тип: Текстовое значение

Описание: Qurilish maydonini o'rganganligi to'g'risida ma'lumot

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "Jizzax polimer plast" МЧЖ | 25 | 25 | 20 | Экспертная | | |
| ООО VERSAL GROUP | 25 | 25 | 23 | Экспертная | | |

Критерий №2 . Молиявий холати

Тип: Текстовое значение

Описание: Корхонани охирги 3 йиллик баланс ва молиявий хисоботлари (Давлат солик инспекциясидан тасдикланган бўлиш керак

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "Jizzax polimer plast" МЧЖ | 25 | 25 | 21 | Экспертная | | |
| ООО VERSAL GROUP | 25 | 25 | 23 | Экспертная | | |

Критерий №3 . Банк ва соликдан карзи йуклиги тугрисида

Тип: Текстовое значение

Описание: Солик ва бошқа мажбурий тўловлардан карзи йуклиги тўғрисида маълумот

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "Jizzax polimer plast" МЧЖ | 25 | 25 | 20 | Экспертная | | |
| ООО VERSAL GROUP | 25 | 25 | 24 | Экспертная | | |

Критерий №4 Ташкилотни охирги уч йил мобайнида бажарган ишлари хамда конкурс объектига ўхшаш объеклада бажарган ишлари тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилотни охирги уч йил мобайнида бажарган ишлари хамда конкурс объектига ўхшаш объеклада бажарган ишлари тўғрисида маълумот

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "Jizzax polimer plast" МЧЖ | 25 | 25 | 20 | Экспертная | | |
| ООО VERSAL GROUP | 25 | 25 | 22 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|
| **"Jizzax polimer plast" МЧЖ** | 78 089 840.00 | 78 089 840.00 | 14.06.2022 19:51:35 | 9.99 |
| **ООО VERSAL GROUP** | 78 089 840.00 | 78 000 000.00 | 14.06.2022 20:03:35 | 10.00 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **"Jizzax polimer plast" МЧЖ** | 72.9 | 9.9885 | 82.8885 |
| **ООО VERSAL GROUP** | 82.8 | 10 | 92.8 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 101848 от 15.06.2022 года на приобретение Сирдарё вилояти Ширин шахар Мирзо -Улугбек махалласи худудида жойлашган 3-умумтаьлим мактабининг пиёдалар йулакларини таьмирлаш определила победителем:

ООО VERSAL GROUP
306050812

и резервный исполнитель: "Jizzax polimer plast" МЧЖ (204222356)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | JUMANAZAROV JAMOLIDDIN MAMARASUL O‘G‘LI | Согласен | |
| **Член комиссии** | XALIMOV XUSNIDDIN FAXRIDDINOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | UMEDOVA FAROG‘AT KOMIL QIZI | Согласен | |
| **Член комиссии** | SARIBAYEV IKRAMJAN XAKIMOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | XOLBAYEV ANVAR ARTIKBAYEVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: GE7143603227

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO`G`RISIDA HUQUQIY XULOSA

**1.Loyihaning turi:** SHARTNOMA WZ60626027

**2.Loyihaning nomi:** Pudrat shartnomasi 20

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma`lumot:**
Mazkur shartnoma loyihasi Shirin shahar Xalq ta`limi bo`limi tomonidan ishlab chiqilgan hamda markazga huquqiy ekspertizadan o`tkazish uchun 2022 yil 20 iyunda kiritilgan.

**XULOSA:** Shartnoma loyihasi O`zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xojalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to`g`risida"gi 670-I-son Qonunining 10-14, 24-35-moddalari, O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-366-moddalari, 14.09.2021-yildagi «Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6313-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 aprelda "Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ208-son qarori, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.04.2021 yilda "O`zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to`g`risida"gi 684-son Qonuni talablari asosida ishlab chiqilgan va uni imzolash maqsadga muvofiq.

**Shirin shahar**
**Yuridik xizmat ko`rsatish**
**markazi bosh yuriskonsul`ti** **X.Xasanov**

*2022 yil 20 iyun*